



ARTICLE INFO

Received: 04th December 2022

Accepted: 13th December 2022

Online: 14th December 2022

KEY WORDS

Normativ-Huquqiy hujjat, qonun, qonunchilik tashabbusi subyekti, norma ijodkorligi, qonun ijodkorligi, konsepsiya.

Qonunlarning ustuvorligi har qanday jamiyatda adolatni qaror toptirishga, huquqiy islohotlar samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov ta'kidlab o'tganidek: "Biz shunchaki demokratik jamiyat emas, demokratik odil jamiyat qurmoqchimiz... Adolat va haqiqat g'oyasi ijtimoiy hayotimizning barcha sohalarini qamrab olmog'i darkor. Adolat va haqiqat g'oyasi qonunchilik faoliyatimizning zamini, bosh yo'nalishi bo'lmog'i shart¹."

Konstitutsiyamizning 15-moddasiga muvofiq O'zbekiston Respublikasida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlarining ustunligi so'zsiz tan olinishi belgilangan bo'lib, davlat, uning organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari, fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish ko'rishlari alohida ta'kidlab o'tilgan. Bu esa

¹Karimov I A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir.3-j., - T.: O'zbekiston, 1996, 10-b.

NORMA IJODKORLIGIGA OID ISLOHOTLARNING AHAMIYATI VA DOLZARBLIGI

Rizayev Xudoynazar Amirullo o'g'li

TDYU Ixtisoslashtirilgan filiali

Jinoyat-huquqiy fanlar kafedrasida o'qituvchisi,
Toshkent, O'zbekiston.

xudoynazarrizayev95@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7436436>

ABSTRACT

Maqolada qonunchilik jarayoni, qonunlarni qabul qilish mexanizmi va ushbu soha yuzasidan olimlar tomonidan ilgari surilgan fikrlar, qonun ijodkorligi jarayoni bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar va ularning hozirgi kundagi ahamiyati va ularning ijro etilishi bo'yicha yo'l qo'yilayotgan kamchiliklar va ularni bartaraf etish masalalari haqida to'xtalib o'tilgan.

o'z navbatida adolatga asoslangan qonunlarning hayotga tatbiq etilishiga va adolatning tantana qilishiga olib keladi. Demokratik jamiyatning eng muhim sharti mamlakatda qabul qilinayotgan qonunlar adolatli bo'lishi, o'zida xalq manfaatlarini ifoda etishida o'z aksini topgan. Bunday qonunlarga og'ishmay itoat etilsagina, jamiyatda demokratiya qaror topadi va mustahkam bo'ladi. Demokratik jamiyatning eng muhim belgilaridan biri - jamiyat a'zolarining qonun oldidagi tengligini, Konstitutsiya va qonunlarning ustunligini ta'minlanganligidir. Konstitutsiya va qonunlarning pirovard maqsadi esa inson, uning huquq va erkinliklarini ta'minlashdan iborat. Shuning uchun ham Qonun ustuvorligini ta'minlash, shaxs, oila, jamiyat va davlatning huquq va manfaatlarimuhofazasini kuchaytirish, aholining huquqiy madaniyati va huquqiy ongini oshirish, fuqarolarni qonunga bo'ysunish va hurmat qilish ruhida tarbiyalash - bu rivojlangan bozor



iqtidosiyotiga asoslangan chinakam demokratik, huquqiy davlat va erkin fuqarolik jamiyati qurishning nafaqat maqsadi, balki uning vositasi, eng muhim shartlaridan hisoblanadi².

Adolatli qonunlarning qabul qilinishi va hayotga tadbiiq etilishi esa norma ijodkorligining ajralmas bo'lagi hisoblanadi. Qonunlar ham huquq ijodkorligi mahsuli hisoblanadi. Biroq ularning ishlab chiqilishi va qabul qilinishi hayotdagi tutgan o'rni va ahamiyatiga bog'liq alohida xususiyatlarga ega. Qonun norma ijodkorligining muhim tarkibiy qismi bo'lgan qonun ijodkorligi jarayonida yaratiladi.

Qonun ijodkorligi jarayoni deganda parlamentning o'z vakolatidan kelib chiqqan holda qonunlarni qabul qilish, uni o'zgartirish yoki jamiyat hayotida uzoq muddat davomida amalda bo'lib, ijro etilishi odatiy holga aylangan odat, axloq yoki boshqa ijtimoiy normalarni sanksiyalashga qaratilgan faoliyati tushuniladi³.

Qonun ijodkorligi jarayoni – davlat oliy vakillik organining Konstitutsiyada belgilangan tartibda yangi qonunlar yaratishga, amaldagi qonunlarga qo'shimcha va o'zgartirish kiritishga qaratilgan, shuningdek, eskirgan qonunlarni bekor qilish borasidagi harakatlari yig'indisi bo'lib, u qonun bilan tartibga solinishi zarur bo'lgan munosabatlarni aniqlash, qonun loyihasini tayyorlash, uni muhokama etish va qabul qilishni o'z ichiga oladi⁴.

O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan qonun ijodkorligi faoliyati, bizningcha, jahon davlatlari tajribasining sinovidan o'tgan bir qator asosiy prinsiplarga tayanadi:

1. Qonun chiqaruvchi hokimiyat avvalo hokimiyatlar bo'linish prinsipidan kelib chiqmog'i, Konstitutsiyada belgilab qo'yilgan vakolatlari doirasida mustaqil, qatiyat va yuksak mas'uliyat bilan faoliyat yuritmog'i lozim;
2. Parlament kollegiallik ya'ni jamoa bo'lib muhokama qilish prinsipiga asoslanmog'i kerak;
3. Qonun chiqaruvchi hokimiyat o'z faoliyatida xalq hokimiyatchiligi, davlat suvereniteti prinsiplariga tayanishi shart.
4. Qonun yaratishda o'tmish avlodlarimiz yaratgan hayotiy ijobiy tajribaga, boy madaniy va ma'naviy merosga, milliy urf-odat va an'analarga vorislik, ya'ni tarixiylik prinsipiga tayanish maqsadga muvofiqdir;
5. Qonun qabul qilishda ijtimoiy adolat prinsipi ustunlik qilishi kerak. Aynan odillik qonun hal etayotgan muammoni echishning, ijtimoiy munosabatni tartibga solishning asosiy mezon bo'lishi kerak;
6. Qonun loyihalarini to'laligicha umumxalq muhokamasiga havola etilsagina qonun ijodkorligining demokratik asosda tashkil etilganligiga shubha tug'ilmaydi;
7. Joriy qonunchilik hujjatlarining Konstitutsiyaga qat'iy mos bo'lishiga erishish talab etiladi;
8. Qonun chiqaruvchi hokimiyat faoliyatida qonuniylik prinsipi muhim o'rin tutadi. Bu prinsip qonun chiqaruvchi organ uchun ham, qonunlar ijrosini ta'minlovchi davlat organlari, tashkilotlar, muassasalar, korxonalar va jamoat birlashmalari uchun ham birdek tegishlidir;

²Karimov I A. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. 10-j., – T.: O'zbekiston, 2002, 28-bet

³Saburov N., Saydullaev Sh. Davlatvahuquqnazariyasi /O'quvqo'llanma. –Toshkent: TDYI, 2011. – 102.

⁴Saburov N., Saydullaev Sh. Davlatvahuquqnazariyasi /O'quvqo'llanma. –Toshkent: TDYI, 2011. – 103.



9. Qonun chiqaruvchi hokimiyat uchun inson(fuqaro) huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ustuvorligining ta'minlanishi prinsipi birdek majburiy bo'lmog'i lozim⁵.

Qonun davlat hokimiyatining maxsus faoliyati mahsuli sifatida vujudga keladi. Davlat oily vakillik organi irodasi bo'lgan qonun, hokimiyatning alohida vakolatli organi tomonidan amalga oshiriladigan murakkab jarayon natijasida yaratiladi. Mamlakatimizda qonun ijodkorligi tushunchasi to'g'risida turli xil qarashlar va fikrlar mavjud bo'lsada ularning umumiy mazmuni bir butunlikni tashkil qiladi. Olimlar o'rtasida qarashlarni uumiy lashtirib turuvchi *umumiy prinsip bu* – huquq ijodkorligining eng yuqori darajada tashkillashgan, uyushgan va takomillashgan shakli qonun ijodkorligidir⁶ degan qarash.

Ma'lumki, qonun ijodkorligi jarayoni murakkab hodisa bo'lib, turli soha mutaxassislari unga o'z nuqtai nazarlari yoki fanlarining predmetidan kelib chiqib yondashdilar. Jumladan, huquqshunoslar uchun qonun ijodkorligi jarayoni davlat oliy vakillik organining konstitusiyada belgilangan tartibda yangi qonunlarni yaratish, amaldagi qonunlarga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish, shuningdek eskirgan qonunlarni bekor qilish borasidagi harakatlari yig'indisi bo'lib, u qonun bilan tartibga solinishi zarur bo'lgan munosabatlarni aniqlash, qonun loyihasini

tayyorlash va muhokama qilishni qamrab oladi⁷.

Tadqiqotchilar qonun ijodkorligining ijtimoiy ildizlari ham mavjudligini ta'kidlaydilar⁸. Ular qonun ijodkorligi jarayonining quyidagi bosqichlari mavjud deb hisoblaydilar:

birinchi bosqich quyidagilardan iborat: mazkur qonunni ishlab chiqishni taqozo etuvchi obyektiv ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, mafkuraviy, psixologik omillar mavjudligini anglash; mazkur huquqiy hujjatda ifodalanishi va rasmiylashishi lozim bo'lgan ijtimoiy sinflar, tabaqa va guruhlarning manfaatlarini anglash va mustahkamlash; qonunning qabul qilinishi va kelajakda amal qilishi bilan bog'liq ijtimoiy natijalarni hamda tayyorlanayotgan qonun loyihasini qo'llab-quvvatlaydigan yoki unga qarshi chiqishi mumkin bo'lgan siyosiy kuchlar muvozanatini anglash;

ikkinchisi matnni tayyorlash bosqichi bo'lib, bunda bevosita loyiha ustida ish olib boriladi, unga o'zgartishlar kiritiladi, uni bayon qilish shakllari belgilanadi;

uchinchisi qonun loyihasini muhokama qilish bosqichi bo'lib, unda loyiha matbuotda e'lon qilinadi, ommaviy axborot vositalari orqali fuqarolar e'tiboriga yetkaziladi⁹.

J.Karbone qonun ijodkorligi jarayonida qonunchilik hokimiyati duch kelishi mumkin bo'lgan muammolarni tahlil qilib, mazkur muammolarning yechimini ham taklif etadi. Uning fikricha, qonun ijodkori qonun loyihasini ovozga qo'yishdan oldin,

⁷ Қаранг: Давлат ва ҳуқуқ назарияси / Х.Т.Одилқориев, И.Т.Тулътеев ва бошқ.; проф. Х.Т.Одилқориев таҳрири остида. – Тошкент.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2009. – Б. 243.

⁸ Касьянов В.В., Нечипуренко В.Н. Социология права. – М.: – С. 168.

⁹ Касьянов В.В., Нечипуренко В.Н. Социология права. – М.: – С. 171.

⁵ Х.Т.Одилқориев.И.Т.Тутыев Ikki palatali parlament 2005 y. 79-b

⁶ Davlat va huquq nazariyasi: Darslik / X.T.Odilqoriev, I.T.Tul'teev va boshq.; prof. X.T.Odilqoriev tahriri ostida. – Toshkent.: O'zbekiston Respublikasi IV Akademiyasi, 2009. – 244 b.



nafaqat parlament a'zolarini, balki, shu bilan birga, qonunlar ijrosini ta'minlovchi fuqarolarni ham ishontira olishi lozim. Bu esa «huquqiy psixosotsiologiya»ga taalluqli bo'lib, inson ongini kutilayotgan o'zgarishlarga tayyorlash masalasi huquqiy xususiyatga ega¹⁰.

Yangi qonunni qabul qilishda qonun ijodkori oldida yuzaga keladigan muammolar bilan ishlab chiqarish korxonasida yangi texnologiyani joriy etish jarayonida yuzaga keladigan muammolar o'rtasida, shuningdek mazkur muammolarni hal etish usullari o'rtasida o'xshashlik bor. Har ikkisida ham odamlar ongini o'zgartirish, ularni amalga oshirilayotgan o'zgarishlarning muhimligiga ishontirish zarur bo'ladi¹¹.

Qabul qilingan qonunlar insonlarning xulq-atvorida mujassamlanadi. Natijada huquqni tatbiq etish masalasi yuzaga keladi. Huquqni tatbiq etishning eng muhim muammosi – insonlarning huquq normalariga munosabati. Bu o'rinda uchta variant to'g'risida so'z yuritish mumkin. **Birinchi**, eng maqbul variantida fuqarolar huquqiy normalarni ma'qullaydilar, qo'llab-quvvatlaydilar va chin dildan hayotga tatbiq etadilar. **Ikkinchi**, uncha maqbul bo'lmagan variantida fuqarolar huquqiy normalarga befarq munosabatda bo'ladilar, huquqiy normalar o'z holicha, fuqarolarning xulq-atvori esa o'z holicha bo'ladi; huquqiy norma hayotga tatbiq etilmaydi, qoidalar buzilmasa-da, lekin inkor etiladi. **Uchinchi**, eng nomaqbul variantida fuqarolar huquqiy qoidalarga qarshi kayfiyatda bo'ladilar, ularga faol qarshilik ko'rsatadilar, ba'zan ularni buzish

hollari ham uchraydi. Jamiyat uchun eng og'ir vaziyatlarda huquqiy qoidalarning buzilishi aybdorlarning javobgarlikka tortilishiga sabab bo'ladi.

Ushbu uch variant ortida fuqarolarning qonunlarni qo'llab-quvvatlashi, qonunning legitimligi, huquqiy va nohuquqiy qonunlar muammosi yotadi¹².

Ma'lumki, qonunlar qabul qilish orqali jamiyatda islohotlar o'tkaziladi. Bunda tadqiqotchilar ikki yo'lni afzal ko'radilar.

Birinчисida qonun loyahasini ommaga e'lon qilishdan avval ijtimoiy fikr o'rganiladi. Ijtimoiy so'rov natijasida islohotlarga to'sqinlik qiluvchi motivlar aniqlanadi. Keyinchalik ishontirish usullari orqali ommaga qonunning zarurligi singdirib boriladi.

Ikkinчисida qonun ijtimoiy fikrni inobatga olmay qabul qilinadi. Bu yondashuv tarafdorlarining fikricha, qonun o'zining majburlov kuchi bilan odamlarni ishontiradi. Tarix shundan dalolat beradiki, qonunlar bunday vaziyatda aksariyat hollarda samarasiz bo'lib qolaveradi¹³.

Qonun chiqarish funksiyalarini amalga oshirish parlament, parlament palatalarining asosiy vazifasi hisoblanadi. Hokimiyat vakolatlarini taqsimlash prinsipi shuni nazarda tutadiki, jamiyat barcha ijtimoiy tabaqalarining manfaatlarini, butun millat manfaatlarini to'liq ifoda etuvchi qonunchilik hokimiyati organi boshqa davlat organlari tomonidan chiqariladigan boshqa huquqiy hujjatlarga nisbatan yuqori turuvchi yuridik kuchga ega bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilishlari lozim. Aynan parlament tomonidan qabul qilinuvchi qonunlar

¹⁰ Карбонье Ж. Юридическая социология... – С. 319.

¹¹ Карбонье Ж. Юридическая социология... – С. 319.

¹² Лившиц Р. З. Теория права. – М.: БЕК, 1994. – С. 130.

¹³ Карбонье Ж. Юридическая социология... – М.: – С. 319.



boshqa barcha davlat organlari uchun zaruriy huquqiy negizni vujudga keltiradi, mazkur organlarning o'zaro hamda fuqarolar va ularning birlashmalari bilan munosabatlarini belgilab beradi.

Sohani tubdan isloh qilishga qaratilgan, qonun ijodkorligini takomillashtirishga qaratilgan va bevosita ushbu sohani tartibga soluvchi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2018-yil 8-avgustda qabul qilingan "Norma ijodkorligi faoliyatini takomillashtirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5505-sonli Farmoni qonun ijodkorligi sohasida tub burilish yasashga va mavjud kamchilik va muommolarni bartaraf etishga zamin yaratadigan va mavjud qonunchilikni tizimlashtirishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjat hisoblanadi. Chunki Konsepsiyani amalga oshirishda qonunchilikning amaldagi holati, mavjud muammolarni chuqur tahlil qilish natijasida qonunchilik bazasini tizimlashtirish, har xil idoraviy normativ-huquqiy hujjatlar sonini qisqartirish, umumiy tusdagi, harakatsiz va huquqni qo'llash amaliyotiga ta'sir etmaydigan qonun hujjatlarini qayta ko'rib chiqish va bekor qilish, asossiz cheklovlar, ortiqcha ma'muriy tartib-taomillar, eskirgan tartibga solish mexanizmlari mavjud bo'lgan qonun hujjatlarini xatlovdan o'tkazish, shuningdek qonun ijodkorligini yangi bosqichga olib chiqish asosiy yo'nalish sifatida belgilab berilgan edi.

Ushbu farmonda belgilangan keng o'zgarishlar sifatida normativ-huquqiy hujjatlar loyihalariga elektron ko'rinishdagi viza qo'yish amalga oshirilishi, uni ko'rib chiqish va kelishish, shuningdek, ularni ishlab chiqish jarayonini monitoring qilish bo'yicha idoralararo elektron hamkorlik yo'lga qo'yilishi, sohaga zamonaviy

axborot-kommunikatsiyalarini keng joriy etish orqali qog'ozbozlik, byurokratizm va buyruqbozlik kabilarga butkul chek qo'yilishi to'liq yo'lga qo'yilgan bo'lmasada, sezilarni darajada ishlar amalga oshirilayotganligini ko'rishimiz mumkin.

Ammo yurtboshimiz ilgari surgan "Qonunning birdan-bir manbai va muallifi tom ma'noda xalq bo'lishi shart" degan tamoyil asosida fuqarolarning norma ijodkorligi jarayonidagi bevosita ishtirokini ta'minlash mexanizmlarini, xususan, fuqarolarning jamoaviy tashabbuslarini elektron taqdim etishga mo'ljallangan "Mening fikrim" veb-portali, regulation.gov.uz normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari muhokamasi portali kabilarning imkoniyatlarini yanada kengaytirish ham asosiy masalalardan biri hisoblanishi belgilangan bo'lib, dastlab ushbu portallar orqali normativ-huquqiy hujjatlar keng muhokama qilingan bo'lsada, oxirgi vaqtda bu sohada ishlar umuman talab darajasida emas va ayrim hollarda ma'lum bir soha bo'yicha qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlardan hatto soha vakillari ham xabarsiz qolmoqda.

Shuningdek qonunchilik tashabbusiga ega subyektlar Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga qonun loyahasini kiritayotganda unga qonunning ijrosi yuzasidan qonun va qonunosti hujjatlarini takomillashtirish, tashkiliy-texnik chora-tadbirlar hamda qonunning mazmun va mohiyatini keng targ'ib qiluvchi chora-tadbirlar rejasini ilova qilishi belgilangan ammo juda ko'p hollarda normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinsada unga asosan o'zgartirilishi lozim bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlarga umuman etibor qaratilmayotgani va ularga o'zgartirish kiritish hollari kechikayotgani haligacha eng og'riqli nuqtalardan biri.



Bundan tashqari qonunlarni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining va Vazirlar Mahkamasining qarorlarini qo'llash, ular kuchga kirgan paytdan e'tiboran ijrosini tashkil etish yuzasidan qo'shimcha ichki idoraviy hujjatlar qabul qilishga doir majburiyatlar yuklatilmasligi, qonunosti hujjatlari faqatgina davlat organlari tomonidan ko'tarilayotgan masalalarni amaldagi qonunchilik va ma'muriy tartib-taomillar orqali yechishning iloji yo'q bo'lgandagina ishlab chiqilishi va qabul qilinishi, normativ-huquqiy hujjatlarni ijro qilinishini monitoring qilish takomillashtirilishi kabi vazifalarning ijro etilganligi yuzasidan ko'zga tashlanadigan va samara beradigan amaliy ishlar amalga oshirilmaganini ko'rishimiz mumkin.

Norma ijodkorligini takomillashtirish barcha sohalarda keng imkoniyatlar yaratishga qaratilgan samarali islohotlarning ajralmas va muhim qismi hisoblanganligi uchun yuqorida keltirilgan holatlarni bartaraf etish bo'yicha amaliy ishlar amalga oshirilishi tizimni ixchamlashtirishga va samarali mexanizm yaratishga xizmat qilish bilan birga fuqarolarimizning qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlar bilan ular qabul qilinmasdan tanishish va fikr bildirish imkonini beradi, qonunosti hujjatlari keskin kamayib boradi va qonunlarning ijrosi to'g'ridan to'g'ri ta'minlanadi va bularning barchasi jamiyat rivojlamishi uchun muhim qadamlardan yana biri bo'ladi.

References:

1. Karimov I A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir.3-j., -T.: O'zbekiston, 1996, 10-b.
2. Karimov I A. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. 10-j., - T.: O'zbekiston, 2002, 28-bet
3. Saburov N., Saydullaev Sh. Davlatvahuqunazariyasi /O'quvqo'llanma. -Toshkent: TDYI, 2011. - 102.
4. Н.Т.Одилқориев.И.Т.Тутыев Ikki palatali parlamentТ 2005 у. 79-b
5. Давлат ва ҳуқуқ назарияси / Х.Т.Одилқориев, И.Т.Тулътеев ва бошқ.; проф. Х.Т.Одилқориев таҳрири остида. - Тошкент.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2009. - Б. 243.
6. Касьянов В.В., Нечипуренко В.Н. Социология права. - М.: - С. 168.
7. Карбонье Ж. Юридическая социология... - С. 319.
4. Jinoiyat huquqi. Umumiy qism: Darslik / A. S. Yakubov, R. Kabulov va boshq. - T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2009. - 374 b.
5. Хрестоматия по истории государства и права зарубежных Стран. Под. ред. З.К. Черниловского.
6. Конвенсия о правах ребенка. 1989г.
7. Лившиц Р. З. Теория права. - М.: БЕК, 1994. - С. 130.
8. Rizayev, X. (2022). Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida jamoatchilik nazoratini kuchaytirish davr talabi. Davlat boshqaruv sohasida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish mehanizmlarini takomillashtirish masalalari, 1(01), 110-116.